



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI  
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «22» июль

VI-48-109-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasining “Umumta’lim maktabi ko‘rsatkichlarini kelgusi 3 yilda bosqichma-bosqich yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha dasturi” tavsiyasiga asosan Sho‘rchi tumanidagi 1-umumta’lim maktabi direktorligiga nomzodni lavozimiga tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmoni asosida xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan viloyat xalq ta’limi boshqarmasining taqdimnomasi bilan “Umumta’lim maktabi ko‘rsatkichlarini kelgusi 3 yilda bosqichma-bosqich yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha dastur”lari Nizomi asosida tumandagi 1-umumta’lim maktabi direktorligiga nomzodni lavozimiga tasdiqlash masalasi tuman Kengashi sessiyasiga kiritildi.

Kun tartibidagi masalani ko‘rib chiqib, eshitilgan fikr-mulohazalar va xulosalarga asoslanib, mazkur masalaning xalq deputatlari tuman Kengashi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida muhokama qilinganligini e’tiborga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan

sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmoni asosida xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan viloyat xalq ta’limi boshqarmasining taqdimnomasi bilan “Umumta’lim maktabi ko‘rsatkichlarini kelgusi 3 yilda bosqichma-bosqich yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha dastur”lari Nizomi asosida tumandagi 1-umumta’lim maktabi direktorligiga nomzodni lavozimiga tasdiqlashga kiritish to‘g‘risidagi yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur tanloving deputatlardan iborat sanoq komissiyasi quyidagi tarkibda tuzilsin:

Mamashukurov Olimjon Qayumovich - tuman Kengashi deputati;

Boltayev Najmuddin Nuriddinovich - tuman Kengashi deputati;

Nazarov Doniyor Jo‘ramamatovich - tuman Kengashi deputati.

3. Tuman Kengashi sanoq komissiyasi xulosasiga ko‘ra:

1-umumta’lim maktabi direktorligiga Egamberdiyeva Nigora Choriyeva tasdiqlansin.

4. Tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Xurramov) tasdiqlangan nomzodni o‘rnatilgan tartibda o‘z vazifasiga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Xurramov) barcha maktablarda xalq ta’limi vazirligining “Umumta’lim maktabi ko‘rsatkichlarini kelgusi 3 yilda bosqichma-bosqich yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha dastur”lari Nizomini keng targ‘ib qilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman Kengashi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Nazarov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi



Xudoyberganov B.X